



UDK: 378.016:811.111

*Durdona NAJMIDDINOVA,*  
*Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi tayanch doktranti*  
*E-mail: durdonann@gmail.com*

*Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti professori., p.f.d N.Yuldasheva taqrizi asosida*

#### DEVELOPING AN ESP TASK SYSTEM BASED ON AUTHENTIC MATERIALS FOR FOOTBALL STUDENTS

Annotation

This article addresses the issue of teaching English to football students in accordance with their professional needs. The study aims to examine the methodological potential of an ESP task system developed on the basis of authentic football materials. The research was conducted with first-year football students at the Uzbekistan State University of Physical Education and Sports. Authentic materials such as match commentaries, press conferences, and football regulations were used during the experimental sessions. The findings indicate that tasks based on authentic materials contribute effectively to the development of professionally oriented language competences. The proposed task system can be applied as a methodological model for improving ESP courses in sports-related higher education programs.

**Key words:** ESP, authentic materials, football students, professional competence, English language teaching.

#### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ ПРИ РАЗРАБОТКЕ СИСТЕМЫ ЗАДАНИЙ В ESP-ЗАНЯТИЯХ СО СТУДЕНТАМИ ФУТБОЛЬНОГО НАПРАВЛЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы обучения английскому языку студентов футбольного направления с учетом их профессиональных потребностей. Целью исследования является выявление методических возможностей системы заданий, разработанной на основе аутентичных футбольных материалов в рамках ESP. Исследование проведено на базе студентов первого курса футбольного направления Узбекского государственного университета физической культуры и спорта. В ходе опытно-экспериментальных занятий использовались аутентичные материалы, такие как футбольные комментарии, пресс-конференции и регламенты. Результаты исследования показали, что система заданий на основе аутентичных материалов способствует формированию профессионально ориентированных языковых компетенций. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования ESP-курсов в спортивных направлениях высшего образования.

**Ключевые слова:** ESP, аутентичные материалы, футбольное направление, профессиональная компетенция, обучение английскому языку.

#### FUTBOL YO‘NALISHI TALABALARI UCHUN INGLIZ TILI DARSLARIDA AUTENTIK MATERIALLAR ASOSIDA TOPSHIRIQLAR TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada futbol yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilini kasbiy ehtiyojlarga mos holda o‘qitish masalalari yoritiladi. Tadqiqot ESP darslarida autentik futbol materiallari asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimining metodik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 1-kurs futbol yo‘nalishi talabalari ishtirokida o‘tkazildi. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari davomida match commentary, press conference va futbol reglamentlariga asoslangan materiallardan foydalanildi. Olingan natijalar autentik materiallarga asoslangan topshiriqlar tizimi talabalarning kasbiy yo‘naltirilgan til kompetensiyalarini shakllantirishda samarali ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari sport yo‘nalishlari uchun ESP kurslarini metodik jihatdan takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** ESP, autentik materiallar, futbol yo‘nalishi, kasbiy kompetensiya, ingliz tilini o‘qitish.

**Kirish.** So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta‘lim tizimida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitishni takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ingliz tilini o‘rganishni ta‘limning barcha bosqichlarida rivojlantirish, uni kasbiy faoliyat bilan uzviy bog‘lash hamda amaliy kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu qaror va dasturlarda ingliz tilini umumiy akademik fan sifatida emas, balki mutaxassislik ehtiyojlaridan kelib chiqib o‘qitish zarurligi alohida ta‘kidlanadi.

Mazkur yondashuv oliy ta‘lim muassasalarida nofilologik yo‘nalishlar, jumladan sport va futbol yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini o‘qitish mazmunini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Futbol sohasi global xarakterga ega bo‘lib, mashg‘ulot jarayonlari, musobaqalar,

trenerlik faoliyati, sport tahlili va professional hujjatlar bilan ishlashda ingliz tili asosiy aloqa vositasi sifatida qo‘llaniladi. Shu sababli futbol yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilini o‘qitish jarayoni ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mos holda tashkil etilishi lozim.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, aksariyat hollarda ingliz tili darslarida futbol yo‘nalishi talabalari umumiy mavzularga asoslangan til materiallari bilan cheklanib qolmoqda. Bunday yondashuv talabalarni real kasbiy muloqotga tayyorlash imkoniyatini cheklaydi, chunki ular professional futbol muhitida uchraydigan autentik nutq namunalari tushunish va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini yetarli darajada shakllantira olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilini futbol sohasi bilan bevosita bog‘langan real materiallar asosida o‘qitish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

Maxsus maqsadlar uchun o'rganilayotgan ingliz tili ta'limida autentik materiallardan foydalanish talabalarga tilni sun'iy didaktik matnlar orqali emas, balki real kasbiy kontekstda o'zlashtirish imkonini beradi. Futbolga oid match commentary (o'yin sharhi), press conference (matbuot anjumani), mashg'ulot jarayonlari, reglamentlar (qoidalar) va tahliliy materiallar talabalar uchun nafaqat til manbai, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi ham hisoblanadi. Biroq mazkur materiallar asosida tizimli, metodik jihatdan asoslangan va dars jarayoniga moslashtirilgan topshiriqlar tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada futbol yo'nalishi talabalari uchun ingliz tili darslarida ESP asosida autentik futbol materiallari orqali topshiriqlar tizimini ishlab chiqish masalasi yoritiladi. Tadqiqot O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 1-kurs futbol yo'nalishi talabalari misolida olib borilib, taklif etilayotgan topshiriqlar tizimining ta'lim jarayonidagi amaliy ahamiyati ochib beriladi. Mazkur yondashuv futbol yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan ilmiy va metodik ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.

Ingliz tilini kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitish masalalari ESP (English for Specific Purposes) doirasida keng tadqiq qilingan bo'lib, ushbu yondashuvning nazariy asoslari chet tillarni o'rgatishda o'rganuvchilarning kasbiy ehtiyojlarini markazga qo'yadi. ESP nazariyasining shakllanishida Tom Hutchinson va Alan Waters tomonidan yozilgan "Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili" asari muhim o'rin tutadi. Mualliflar ingliz tilini o'qitish mazmuni til tizimining o'zidan emas, balki talabalarining real professional faoliyatida duch keladigan kommunikativ vaziyatlardan kelib chiqib belgilanishi lozimligini ta'kidlaydi [1]. Ushbu yondashuv futbol yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilini o'qitishda ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

ESP ta'limining metodik jihatlari va amaliy yo'nalishlari Tony Dudley-Evans va Maggie Jo St John qalamiga mansub "ESP dagi rivojlanishlar: ko'p fanli (multidisiplinar) yondashuv" nomli tadqiqotlarida yanada kengroq yoritilgan [2]. Mualliflar autentik materiallardan foydalanish kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim omil ekanini qayd etadi. Ularning fikriga ko'ra, real kasbiy diskursni aks ettiruvchi materiallar talabalarining tilni sun'iy mashqlar orqali emas, balki professional faoliyatga yaqin sharoitda o'zlashtirishiga imkon yaratadi.

Autentik materiallarning ta'lim jarayonidagi o'rni kommunikativ yondashuv doirasida ham asoslangan. Tilshunos olim H. G. Widdowson "Tilni muloqot vositasi sifatida o'qitish" asarida til o'rganishda real nutq namunalariidan foydalanish o'rganuvchilarning til birliklarini funksional jihatdan anglashiga xizmat qilishini ta'kidlaydi [3]. Bu jihat futbolga oid materiallardan ESP darslarida foydalanish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Sport sohasi, xususan futbol yo'nalishida ingliz tilidan foydalanish amaliyoti FIFA va UEFA tomonidan ishlab chiqilgan reglamentlar, musobaqa hujjatlari hamda mashg'ulot qo'llanmalarida yaqqol namoyon bo'ladi [4]. Ushbu hujjatlar professional futbol muhitida ingliz tilining asosiy aloqa vositasi sifatida qo'llanilishini tasdiqlaydi va ularni ESP darslari uchun muhim autentik manbalar sifatida qarash imkonini beradi.

Mazkur nazariy qarashlardan kelib chiqib, tadqiqot dissertatsiya doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining bir

qismi sifatida tashkil etildi. Tadqiqot O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 1-kurs futbol yo'nalishi talabalari ishtirokida o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, dars jarayonini tahlil qilish hamda tajriba mashg'ulotlari metodlaridan foydalanildi.

Tajriba davomida autentik futbol materiallari sifatida xalqaro futbol musobaqalariga oid match commentary, press conference materiallari, mashg'ulot jarayonlarini aks ettiruvchi video lavhalar hamda FIFA tomonidan e'lon qilingan reglamentlardan foydalanildi. Ushbu materiallar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirildi. Tajriba mashg'ulotlari ESP fani doirasida modul asosida tashkil etilib, talabalarining kasbiy leksikani o'zlashtirish darajasi va kommunikativ faolligi kuzatildi. Olingan natijalar ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimining ta'lim jarayonidagi metodik ahamiyatini baholash imkonini berdi.

**Natijalar va muhokama.** Tadqiqot jarayonida autentik futbol materiallari asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 1-kurs futbol yo'nalishi talabalari ishtirokida ESP ga asoslangan tajriba sifatida ingliz tili mashg'ulotlarida sinovdan o'tkazildi. Tajriba mashg'ulotlari davomida talabalar faoliyati pedagogik kuzatuv asosida tahlil qilinib, ularning kasbiy leksikani o'zlashtirish darajasi hamda kommunikativ faolligidagi o'zgarishlar aniqlandi.

Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, autentik futbol materiallari asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, o'yin sharhlari va mashhur futbolchilar va murabbiylar suhbatlari, matbuot anjumanlari materiallari bilan ishlash jarayonida talabalar futbolga oid terminologiyani real nutq kontekstida anglay boshladi. Avvalgi mashg'ulotlarda murakkab bo'lib tuyulgan professional leksika tajriba davomida muloqot jarayonida faol qo'llanila boshlagani kuzatildi.

Gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar talabalarining kommunikativ faolligini oshirdi. Rol o'yinlari va vaziyatli mashqlar orqali talabalar o'z fikrini futbolga oid real vaziyatlar asosida ifodalashga intildi. Natijada talabalar nutqida ishonch ortgani, savol-javob jarayonlarida faollik kuchaygani hamda kasbiy terminlardan foydalanish chastotasi oshgani aniqlandi. Bu holat autentik materiallarning kommunikativ muhit yaratishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

O'qish va yozish ko'nikmalariga qaratilgan topshiriqlar futbol reglamentlari va futbolchilar profillari asosida tashkil etildi. Talabalar ushbu materiallar bilan ishlash jarayonida kasbiy mazmundagi matnlarni tushunish hamda qisqa yozma tahlillarni amalga oshirishda nisbatan yuqori natijalarni ko'rsatdi. Ayniqsa, yozma topshiriqlarda futbol terminologiyasidan maqsadga muvofiq foydalanish holatlari ko'paygani kuzatildi.

Olingan natijalar ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan nazariy qarashlarni tasdiqlaydi. Xususan, autentik materiallarning ESP ta'limidagi ahamiyati haqida bildirilgan fikrlar ushbu tadqiqotda amaliy jihatdan o'z tasdig'ini topdi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, autentik materiallardan samarali foydalanish ularni tasodifiy qo'llash bilan emas, balki oldindan ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimi asosida tashkil etilganda yuqori natija beradi.

Quyida tajriba jarayonida qo'llanilgan autentik futbol materiallari asosidagi topshiriqlar tizimi keltiriladi (1-jadval).

1-jadval. Ingliz tili darslarida autentik topshiriqlar tizimi

Nutq faoliyati turi	Autentik material turi	Topshiriq mazmuni	Shakllantiriladigan kompetensiyalar
---------------------	------------------------	-------------------	-------------------------------------

<b>Listening</b>	Match commentary (o'yin sharhlari) (video/audio)	O'yin epizodlarini tinglab, asosiy axborot va taktik elementlarni aniqlash	Kasbiy-diskursiv kompetensiya, tinglab tushunish kompetensiyasi
<b>Speaking</b>	Press conference (matbuot anjumanlari) (video)	Murabbiy va futbolchi rollarida kasbiy muloqotni modellashtirish	Kasbiy-kommunikativ kompetensiya, interaktiv nutq kompetensiyasi
<b>Reading</b>	FIFA reglamentlari (qoidalari), match reportlar (o'yin hisobotlari)	Kasbiy matnlarni tahlil qilish va terminologiyani kontekstda anglash	Kasbiy-o'qish kompetensiyasi, terminologik kompetensiya
<b>Writing</b>	Match summary (o'yin xuloslari), training report (mashg'ulot hisobotlari)	Kasbiy vaziyatlarga mos yozma tahlil tayyorlash	Kasbiy-yozma nutq kompetensiyasi, diskursiv kompetensiya

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqot futbol yo'nalishi talabalari uchun ESP darslarini loyihalashda autentik materiallardan foydalanish metodik jihatdan asosli va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimi futbolga xos real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarni kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan til muhitiga jalb etish imkonini berdi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, autentik materiallar asosida tashkil etilgan ESP mashg'ulotlari talabalarning til faoliyatini faollashtirib, kasbiy mazmundagi muloqotda mustaqil fikr bildirishiga sharoit yaratadi. Bu holat ESP yondashuviga asoslangan darslarda til o'rgatish jarayonini faqat bilim berish bilan cheklamasdan, balki kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorlaydigan kompetensiyalarni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, autentik materiallarning o'zbekcha izoh va tarjimalar bilan qo'llanishi metodik vosita sifatida talabalarning kasbiy terminlarni anglash jarayonini soddalashtirib, til birliklarining mazmunini ongli ravishda o'zlashtirishga yordam berdi. Bu yondashuv futbol yo'nalishida ingliz tilini o'qitishda ikki tilli metodik muvozanatni ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqotda taklif etilgan topshiriqlar tizimi ESP ga asoslangan ingliz tili darslarini kasbiy ehtiyojlarga mos holda tashkil etish uchun amaliy metodik model sifatida qaralishi mumkin. Mazkur modeldan oliy ta'lim muassasalarida sport yo'nalishlari bo'yicha ESP kurslarini loyihalash va takomillashtirish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati belgilanadi.

#### ADABIYOTLAR

- Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A learning-centred approach*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Widdowson, H. G. (1978). *Teaching Language as Communication*. Oxford: Oxford University Press.
- The International Football Association Board (IFAB). (2023–2024). *Laws of the Game*. Zurich: FIFA.
- Union of European Football Associations (UEFA). (2023). *Grassroots Charter and Coaching Frameworks*. Nyon: UEFA.
- Basturkmen, H. (2024). *Learning a specialized register: An English for specific purposes research agenda*. *Language Teaching*.
- Lai, W.-Y. W., et al. (2024). *A systematic review of conversational AI tools in English language teaching*. *System*, Elsevier.
- El Arbaoui, F. Z. (2024). *Implementing a task-based approach in ESP education*. ERIC – Education Resources Information Center.
- Zamfir, C. M. (2024). *English for physical education and sport: An ESP perspective*. *Journal of Physical Education and Sport*.
- Nosirova, N. S. (2023). *Using authentic materials in ESP classrooms*. *International Journal of Language Education*.
- Yusupalieva, G. (2023). *Developing students' communicative competence using authentic materials and information technologies*. *International Journal of Foreign Language Teaching*.